

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Usanova Nozima Shavkat qizi

KIUT Samarqand filiali

Boshlang'ich ta'lim kafedrası magistrant

Usanovanozima2003@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari hamda tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek ta'lim jarayoniga integratsiya, shaxsiy namuna, faoliyatga yo'naltirish va oila-maktab hamkorligi asosidagi mexanizmlarning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, tarbiyaviy mexanizmlar, shaxsiy namuna.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim davrida bolaning shaxsiy sifatlari, axloqiy me'yorlarga munosabati, ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy ishlarni tizimli va samarali mexanizmlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat hamda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimiga, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasiga yuqori talablar qo'ymoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu davrda ularning ma'naviy -axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari va ijtimoiy munosabatlari asoslari tarkib topadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida axloqiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda o'quvchilarning shaxsiy sifatlari va ijtimoiy xulq-atvor asoslari tarkib topadi[1].

Ma'naviy- axloqiy tarbiya o'quvchilarda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar, insoniy fazilatlar, milliy va umuminsoniy



qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. U bolaning ongli xulq-atvori, ijtimoiy mas'uliyati va jamoadagi munosabatlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlar asosan taqlid, muloqot va faoliyat orqali shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy jarayon tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va uzviy bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan hissiyotga boy, adolat va e'tirofga sezgir bo'ladilar. Ular o'qituvchi va ota-onaning shaxsiy namunasiga katta ahamiyat beradi. Shu bois ma'naviy-axloqiy tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish mexanizmlari quyidagilar:

- Ta'lim jarayoniga integratsiya mexanizmi

Ma'naviy-axloqiy tarbiya barcha fanlar mazmuni bilan uzviy bog'langan holda olib borilishi lozim. Dars jarayonida axloqiy mazmundagi matnlar, ibratli voqealar va hayotiy misollar orqali o'quvchilarda ijobiy fazilatlar shakllantiriladi.

- Shaxsiy namuna mexanizmi

O'qituvchining axloqiy qiyofasi, madaniyatli muomalasi va adolatli munosabati o'quvchilar uchun asosiy tarbiya manbai hisoblanadi. O'qituvchi shaxsiy namuna orqali bolalarda halollik, mas'uliyat va hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.

- Faoliyatga yo'naltirilgan mexanizm

O'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etish, rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va tarbiyaviy tadbirlar orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni mustahkamlash mumkin.

- Oila va maktab hamkorligi mexanizmi

Ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi oila va maktabning uzviy hamkorligiga bog'liq. Ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy suhbatlar va maslahatlar ushbu jarayonning muhim omilidir[2].

Pedagogika fanida axloqiy tarbiya shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Sharq va G'arb mutafakkirlari, shuningdek, zamonaviy pedagog olimlar axloqiy tarbiyaning mazmuni va shakllariga alohida e'tibor qaratganlar. Shu jumladan, buyuk ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyani inson hayotining asosi sifatida baholab, "Axloq-insonni inson qiladigan eng muhim fazilatdir", deb ta'kidlaydi. U bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishni erta yoshdan boshlash zarurligini uqtiradi[3]. Avloniy fikricha, axloqiy tarbiya faqat nasihat orqali emas, balki amaliy faoliyat va shaxsiy namuna orqali berilgandagina samarali bo'ladishini ta'kidlagan.

Pedagog olim A.A.Xoliqov axloqiy tarbiyani shaxsning ijtimoiylashuvi bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, axloqiy me'yorlar o'quvchilarda ongli ravishda shakllantirilmasa, ularning



xulq-atvorida barqarorlik yuzaga kelmaydi[4]. Shu bois boshlang'ich ta'lim bosqichida axloqiy tarbiya tizimli yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Shuningdek, mashhur rus pedagogi V.A. Suxomlinskiy axloqiy tarbiyada o'qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola axloqni eshitish orqali emas, balki ko'rish va his etish orqali o'zlashtiradi. Shu sababli o'qituvchining har bir harakati tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi[5]. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi qaror va farmonlarida yosh avlodni axloqan barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan[6]. Ushbu hujjatlarda maktab, oila va jamiyat hamkorligida axloqiy tarbiyani kuchaytirish muhim vazifa etib ko'rsatiladi.

Yuqoridagi olimlar fikridan kelib chiqib aytish mumkinki, axloqiy tarbiya boshlang'ich ta'lim bosqichida shaxs kamolotining poydevorini yaratadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda milliy pedagogik meros, zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda davlat siyosati talablarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim davri axloqiy tarbiyaning poydevori qo'yiladigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu yoshda bolalarda axloqiy tasavvurlar shakllanib, ijobiy xulq-atvor namunasi mustahkamlanadi. O'qituvchining shaxsiy namunasi, tarbiyaviy muhit va ijobiy muloqot axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiya tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi lozim. Axloqiy tarbiya jarayonida o'qituvchi yetakchi subyekt hisoblanadi. Uning axloqiy qiyofasi, pedagogik madaniyati va muomala uslubi o'quvchilar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi o'quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki o'z xatti-harakatlari orqali axloqiy me'yorlarni namoyon etadi. Adolatli baholash, hurmat va mehr-muruvvatga asoslangan munosabat axloqiy tarbiyaning muhim omillaridan biridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, axloqiy tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy axloqiy tarbiyani shakllantirish mexanizmlari tizimli va uzviy amalga oshirilgandagina yuqori samaraga erishiladi. Ushbu jarayonda ta'lim mazmuni, o'qituvchining shaxsiy namunasi, o'quvchi faoliyati hamda oila va maktab hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishda interfaol metodlar va ota-onalar bilan tizimli seminarlar tashkil etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent:



Ma'naviyat, 2008

2. Usanova N. Sh. Oila va maktab hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati // European Journal of Humanities and Educational Advancement. - 2025.
3. Abdulla A. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. Xoliqov A.A. Pedagogika. -Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Suxomlinskiy V.A. Bolani qanday tarbiyalash kerak. - Moskva, 1979.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. -Toshkent, 2020.

